INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

TURLI TIZIMLI TILLARDA GRADUONIMIYANING LISONIY XUSUSIYATLARI TAHLILI

Shirinova Nilufar Djabbarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, filol.f.n.
E-mail: nilufar.shirinova@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19693613

Annotatsiya. *Darajalanish hodisasi tadqiqida empirik bilish yo‘li bilan qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida aniqlangan oppozitiv birliklar oraliqlari (oraliq uchinchi) tahlil etiladi va ular orasidagi bog‘lanishlar muayyan lingvistik hukmlarni chiqarishga asos qilib olinadi. Shu jumladan, darajalanish qatoridagi proksimal, klouz va distal graduosiralar o‘zaro yaqinlashayotgan (o‘xshashlik munosabatlarini o‘rnatayotgan) yoki uzoqlashayotgan (farqlanayotgan) lisoniy birliklarning dialektik aloqadorligi sifatida lisoniy ma’nolarni gradual farqlashda ham nisbiy proksimal, klouz va distal graduomunosabatlarni taqdim qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *darajalanish/graduonimiya, gradual qator, graduator, gradosema, explitsit vositalar, implitsit vositalar, proksimal graduonim, distal graduonim, klouz graduonim.*

Аннотация. *В исследовании явления градуальности анализируются интервалы оппозитивных единиц (промежуточный третий член), выявленные на основе научных результатов, полученных эмпирическим путём познания, и связи между ними принимаются за основу для выведения определённых лингвистических суждений. В частности, проксимальные, клоузные и дистальные градуо-ряды могут представлять относительные проксимальные, клоузные и дистальные градуальные отношения при постепенном разграничении языковых значений как диалектическую взаимосвязь языковых единиц, которые либо сближаются (устанавливают отношения сходства), либо отдаляются (дифференцируются).*

Ключевые слова: *градуонимия, градуонимический ряд, градуатор, градуосема, эксплицитные средства, имплицитные средства, проксимальный градуоним, дистальный градуоним, клоузный градуоним.*

Annotation. *In the study of the phenomenon of gradation, the intervals of oppositional units (the intermediate third) identified on the basis of scientific results obtained through empirical cognition are analyzed, and the relationships between them serve as a foundation for drawing specific linguistic conclusions. In particular, proximal, close, and distal graduonyms within a gradational series may represent relative proximal, close, and distal gradational relations in the gradual differentiation of linguistic meanings, functioning as a dialectical interconnection of linguistic units that either converge (establish relations of similarity) or diverge (differentiate).*

Key words: *graduonymy, gradual line, graduator, gradoseme, explicit means, implicit means, proximal graduonym, distal graduonym, close graduonym.*

Kirish. Tabiat, jamiyat rivojlanishi dialektika qonunlariga asoslanadigan bo‘lsa, har bir fan, xususan, tilshunoslik fani birliklari ham bundan mustasno emas. Binobarin, dialektikada predmet yoki narsa uzluksiz ravishda taraqqiy etadi, o‘zgarib turadi va bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o‘tadi, narsa “majmuyi asmo’ va sifot” sifatida har doim boshqa narsalar bilan munosabatda bo‘ladi va uni shu munosabat

nuqtayi nazari (rakursi)dan tahlil etish, baholash mumkin hisoblanadi. Odatda, bu jarayon olimlar tomonidan ajratilgan “aynanlik-farqlilik-ziddiyatlilik” kabi uch bosqichda kechar ekan, bu tizimning boshlanish nuqtasi (aynanlik)dan tortib, ziddiyatlilikning oxirgi nuqtasigacha bo‘lgan darajalanishlar, ichki siljuvchanlik va bir-biriga o‘tuvchanliklardan iboratdir. Shuningdek, darajalanish hodisasi tadqiqida ham empirik bilish yo‘li bilan qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida aniqlangan oppozitiv birliklar oraliqlari (oraliq uchinchi) tahlil etiladi va ular orasidagi bog‘lanishlar muayyan lingvistik hukmlarni chiqarishga asos qilib olinadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida darajalanish hodisasiga aloqador ishlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur ilmiy muammo o‘zbek tilshunosligida til sathlari (va hatto, lisoniy ong bosqichi [11])da ko‘rilsa, rus tilshunosligida bu nutq misolida tadqiq etiladi [2]. Bu masala bo‘yicha S.A.Tixomirov, G.V.Kireyeva, S.M.Kolesnikova, S.S.Kadisevalarning ishlarini keltirish mumkin [9; 2; 3; 4]. Binobarin, graduator atamasi faqat rus tilshunosligida qo‘llanilgan. Xususan, S.M.Kolesnikova va izdoshlarining tadqiqotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning ishlarida graduallikka doir bir qancha terminlar qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin, jumladan, “**градуатор”**, “**градосема”**, “**градационная шкала”** va hokazo. Ushbu terminlarga to‘xtalishdan oldin rus tilshunoslarining graduallik haqidagi ta’rifini ko‘rib chiqamiz: “Результаты фактологического анализа говорят о том, что, как правило, градуированию подвергаются физиологические и психические состояния субъекта, его параметрические и оценочные характеристики, также градуируются временные характеристики и степень результативности какого-либо процесса. Понятие градуальности отражает способность человеческого сознания градуировать различные величины. Существование в языке специальных средств, выражающих градуирование, свидетельствует о значимости данного понятия в лингвистике” [6]. Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, unda so‘z tildagi leksemalar, ya’ni ot, sifat, olmosh, ravish yoki fe’l so‘z turkumlariga xos darajalanish haqida emas, balki nutqdagi darajalanish xususida bormoqda. Shu sababdan *“градуирование”* hodisasini tadqiq etgan rus tilshunos olimlari graduallik darajasiga olib chiquvchi so‘zlarni “graduatorlar” deb atashgan. Alohida e’tirof etish mumkinki, I.V.Nazarova graduallik masalasida hanuzgacha bir to‘xtamga kelinmaganligini ta’kidlasa-da, graduallikka erishishdagi ikki xil yo‘l xususida fikr bildiradi: eksplitsit vositalar hamda implitsit vositalar. Eksplitsit vositalarga leksik birlikning tashqi tomoniga aloqador miqdoriy va sifatiy belgilar tushunilsa, implitsit vositalarga leksik birlik semantikasida faqat kvantitativ (miqdoriy) belgilarning mavjudligi deb beriladi: “Однако наряду с эксплицитными средствами выражения категории

градуальности существуют и имплицитные, которые предполагают наличие в семантике единицы указания на количественное проявление признака (М.В.Бондаренко, С.М.Колесникова, Н.Д.Федяева)” [6]. Shu bilan bir qatorda tadqiqotchi ravish-graduatorlarga quyidagilarni misol qilib keltiradi: *absolutely, just, barely, completely, directly, exactly, extensively, hardly, perfectly, slightly, thoroughly*. I.V.Nazarova mazkur ravish-graduatorlarning sintaktik birlik bo‘lgan so‘z birikmasi tarkibida ishlatilganda yuqori yoki quyi darajada ishlatilishiga ko‘ra bir necha guruhga ajratadi hamda ularni misollar asosida asoslaydi. Shu o‘rinda bir narsani alohida e’tirof etish lozimki, misollarda keltirilgan ravishlar har doim ham olima ko‘rsatgan darajani bera olishi haqida tugal fikr bildirib bo‘lmaydi, chunki matn yaratish jarayonida muallif til birliklaridan, xususan, ravishlardan individual (o‘ziga xos) tarzda foydalanadi, shu boisdan bu birliklarning kontekstual ma’nosi leksik semasidan farqlanishi mumkin (okkazional ravishda ular anglatgan ma’no va mazmun nisbiy bo‘lishi mumkin). Bundan tashqari, I.Nazarova tomonidan ingliz tilidagi *enough* birligiga ham eksplitsit vosita sifatida qaralganini ko‘ramiz: But to my way of thinking, to actually get to sleep you'd have to know that the next day would be hot as well, and the one after that, and that **enough** hot days lay in store in your lifetime to do all conceivable hot-day activities in a calm and measured manner with no sense of urgency whatsoever (H.Fillding [6]). Fikrimizcha, unda *hot* so‘zining yuqori yoki past darajasi namoyon bo‘lmagan, balki *days* so‘zining miqdoriy belgisiga (o‘z navbatida, *days* so‘zini aniqlab kelayotgan *hot* sememasining miqdoriy belgisiga) ishora mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Rus tilshunosligida tadqiq etilgan градуальность ba’zi hollarda intensifikatsiya bilan chalkashtirilsa, ba’zi hollarda uning stilistik vosita bo‘lgan gradatsiya bilan ham o‘xshash jihatlari mavjudligi e’tirof etilmoqda. Ammo o‘zbek tilshunosligida o‘rganilgani kabi lisoniy graduonimiya, xususan, leksik graduonimiya intensifikatsiya, graduallik va/yoki gradatsiyadan ham lingvistik, ham pragmatik-funksional jihatdan tubdan farq qilishini yuqorida keltirilgan tahlillar orqali asoslash mumkin.

Shundan kelib chiqib, o‘zbek tilshunosligida tadqiq etilgan lisoniy darajalanish (graduonimiya) hodisasi, so‘zning lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqib, implitsit, ya’ni lisoniy birlik ichki tomonining miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlari belgilari orqali namoyon bo‘ladi, deyish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Graduonimiya ilmiy hodisasiga asos solgan va uning alohida fenomen darajasida rivojlanishi, yoyilishi uchun sababchi bo‘lgan olimlar ta’biri bilan aytganda: “Lisoniy birliklarning semantikasida, ya’ni boshqa lingvistik vositalarsiz ma’lum bir belgining o‘sib/kamayib borishiga ko‘ra o‘zaro zidlanishi (ya’ni sifat va miqdoriy belgilarning o‘sishi/kamayishi)ni aks

etttirgan graduonimiya atamasi o‘zbek tilshunosligida lisoniy ma’noviy munosabatni aks ettiruvchi sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabilarning umumiy tarkibiy qismi bo‘lgan -onimiya qismini lotincha gradu (“daraja”, “bosqich”) so‘zi bilan biriktirish asosida sun’iy ravishda yasaldi” [8]. Bu ta’rif, o‘z-o‘zidan, mazkur hodisaning *градуирование, градуальность* kategoriyalaridan farqlanishini yaqqolroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar. Graduonimik munosabatlar tahlilida boshqa ishlarda, kuzatishlarda uchramagan va ilk marta ushbu tadqiqotda o‘rganilib, ilmiy muomalaga kiritilgan yana bir jihatni alohida ta’kidlab o‘tmoqchimiz: darajalanish qatori o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat o‘zaro bir-birini inkor qiluvchi, o‘zaro farqlar bilan birga muayyan umumiyliklarga ham ega bo‘lgan, miqdoriy o‘zgarishlar asosida sifatiy taraqqiyotni namoyish etuvchi munosabat xarakteriga, balki o‘z ichida a’zolarining nisbiy yaqin aloqadorlik, aniqrog‘i a’zolar orasidagi masofaga ko‘ra – **proksimal** (proximal – lot. *“proximus”*: eng yaqin, ketma-ket, yonma-yon), **klouz** (close – lot. *“clausum”*: yopmoq; yaqin) hamda **distal** (distal – lot. *“disto”*: uzoqda turaman) graduonimiyani o‘z ichiga olishi bilan ham o‘ziga xosdir. Bunda proksimal graduonimlar – dominantadan keyin, ketma-ket joylashgan graduonimlarni, klouz graduonimlar – nisbiy yaqin a’zolarni hamda distal graduonimlar esa graduonimik qatorning eng uzoq a’zosini anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi “boylik/kambag‘allik darajasiga ko‘ra” farqlanadigan quyidagi leksik graduonimik qatorga e’tibor qarataylik: *destitute → impoverished → poor → low-income → working-class → lower-middle class → middle-class → upper-middle class → well-off → affluent → rich → wealthy → millionaire → multi-millionaire → billionaire → ultra-wealthy.* Bunda kambag‘allik darajasi (poverty scale) “middle-class”dan “destitute”gacha; boylik darajasi (richness scale) esa “middle class”dan “ultra-wealthy”ga qadar o‘sib bormoqda. O‘z-o‘zidan, *destitute* hamda *ultra-wealthy* birliklari “middle-class”ga nisbatan distal, *lower-middle class* hamda *upper-middle class* birliklari “middle-class”ga nisbatan proksimal hamda graduonimik qator ichidagi qolgan ...*low-income → working-class...; ...multi-millionaire → billionaire...* kabi birliklar ham bir-biriga nisbatan klouz graduonimlar mavqeyini egallaydi.

Fikrimizni yuqoridagi bo‘limda tahlili keltirilgan rus tilidagi *тучный ~ толстый ~ полный ~ упитанный ~* ***нормальный*** *~ сухопарый//худой ~ тощий ~ истощенный* qatori misolida ham dalillashga harakat qilmoqchimiz: *упитанный* hamda *сухопарый//худой* so‘zlari markaziy birlik – ***нормальный***ga nisbatan proksimal graduonimlar, *тучный* hamda *истощенный* shakllari esa distal graduonimlar mavqeyini egallaydi. *Толстый, полный..., тощий* so‘zlari esa klouz graduonimiyani tashkil qiladi. Albatta, graduonimik munosabatlar taraqqiyotida

“klouzlashish” an’anasi “proksimallashish”dan ko‘ra kengroq tus oladi, chunki proksimal graduonimlar faqat neytral birlik (dominanta)ga nisbatan mavjud bo‘lsa, klouzlashish darajalanish zanjiridagi barcha a’zolarning bir-biriga nisbatan yaqinligi, ketma-ketligi bilan baholanadi, bu esa, o‘z-o‘zidan, kamida 3 a’zoli gradual qator(lar)ning har bir a’zosini bir-biriga nisbatan klouz qilib qo‘yadi. Masalan, *destitute ~ ...ultra-wealthy* yoki *тучный ~ ... истощенный* qatorlaridagi har bir a’zo bir-biriga nisbatan klouz-graduonim hisoblanadi. Bir-biriga nisbatan proksimal, klouz va distal ko‘rinishlarga ega bo‘lgan bu hosilalar – dialektik taraqqiyotning yana bir rad etib bo‘lmas tamoyili – Albert Eynshteynning **nisbiylik** nazariyasiga juda yaqin mohiyatga ega [12]. Darajalanish munosabatlarining ontologik tabiatiga tegishli bo‘lgan va ilk marta shu ishda o‘rtaga tashlanayotgan bu zuhurot yuqorida sanab o‘tilgan to‘rt metodologik tamal toshlar (lug‘aviy paradigmalarning bir yetakchi so‘z – dominanta atrofida birlashishi, lug‘aviy paradigmalarning ochiqligi, lug‘aviy paradigmalarning boshqa kattaroq paradigmalar tarkibiga yetakchi so‘zi bilan kirishi, lug‘aviy paradigmadagi qurshov so‘zlarning osonlikcha almashtira olinishi [8; 9; 11])ga yana bir dalilni qo‘shadi va shak-shubhasiz, lisoniy graduonimik munosabatlar tadqiqini o‘ziga xos planga olib chiqadi. Shu jumladan, darajalanish qatoridagi proksimal, klouz va distal graduosiralar o‘zaro yaqinlashayotgan (o‘xshashlik munosabatlarini o‘rnatayotgan) yoki uzoqlashayotgan (farqlanayotgan) lisoniy birliklarning dialektik aloqadorligi sifatida lisoniy ma’nolarni gradual farqlashda ham nisbiy proksimal, klouz va distal graduomunosabatlarni taqdim qilishi mumkin.

Graduonimiya hodisasining o‘rganilishi tabiat va jamiyatning asosiy rivojlanish qonuniyati bo‘lgan va uning cheksiz hodisalarida o‘z aksini topadigan miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tishi qonuni tilda o‘z aksini topmay va tilshunoslikda u yoki bu tarzda qayd qilinmay qola olmasligi bilan bog‘liq [1; 11]. Zero lisoniy darajalanish o‘z tabiatiga ko‘ra:

1) miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi;

2) inkorni inkor;

3) qarama-qarshiliklar birligi va kurashi

dialektik qonunlarining birgalikda, bir hodisada bevosita voqelanishidir. Jumladan:

1) birinchi qonun – graduonimik qatorda ayni bir belgi turining miqdori, salmog‘i uzluksiz darajalanib borishi oqibatida bir sifat turi ikkinchisiga, ikkinchisi keyingisiga bosqichma-bosqich, darajama-daraja o‘zgarib boraverishida;

2) ikkinchi qonun – darajalanish qatorining ikki chekka uchi ma’lum bir belgining tasdiqi bilan birga bir-birini inkor etishida;

3) uchinchi qonun – bir-birini inkor etuvchi, zidlik, antonimlik munosabatida turgan so‘zlarning bir yetakchi so‘z atrofida birlashib, bir ma’noviy qatorni – darajalanuvchi, graduonimik sirani tashkil etishida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Tilshunoslikda qarindosh va noqarindosh tillar doirasida izlanishlar olib borish – nafaqat ulardagi o‘xshash va farqli tomonlarni tekshirib, mazkur tillar tizimi, strukturasi va aspektlari haqida yanada chuqurroq bilim to‘plashga, balki tillarning tabiati, mohiyatini aniqlashga, umumlisoniy hodisa va qonuniyatlarni umumlashtirishga, pirovard natijada til ontologiyasi, lisoniy ong bo‘yicha haqli xulosalar chiqarishga zamin tayyorlaydi. Shu jumladan, tillar doirasida graduonimiyaning ko‘plab ma’noviy munosabatlar bilan bog‘lanishini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Borliq jarayonlarining tadrijiy taraqqiyotini o‘zida aks ettiruvchi lisoniy darajalanish, xususan, leksik darajalanish davr talabi sifatida yuzaga chiqqan hodisa bo‘lsa, kundan-kunga ildamlab borayotgan davr va taraqqiyot bu kabi ma’noviy munosabatlarning yangilarini kashf etishda cheksiz imkoniyatlar eshigini ochishi mumkin. Zero, darajalanish zanjirining o‘zi o‘z ichida guruhlanuvchi, to’dalanuvchi, o‘suvchi/kamayuvchi, uyadosh, maydonlarga ajraluvchi, teskari aloqaga kirishuvchi, bir-birini keltirib chiqaruvchi va/yoki bir-birini inkor qiluvchi munosabatlar tashkiloti sifatida muayyan bir xususiyatlari bilan boshqa ma’noviy munosabatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin, bu esa hali oldinda ancha o‘z yechimini kutayotgan masalalar mavjudligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Т.: Фан, 1995. – Б. 36.
2. Жумабаева Ж. Турли тизимли тилларда лексик ва стилистик градуонимия. – Т., 2017. – 213 б.
3. Кадысева С.С. Категория интенсивности в системе функционально-семантических, функционально-стилистических категорий // Известия Самарского научного центра РАН. – Самара, 2010. Т. 12, №5. – С. 196-199.
4. Киреева Г.В. Междометие как показатель градуальности в современном русском языке: Дисс. … канд.филол. наук. – Саранск/Москва, 2010. – 217 с.
5. Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке: Дисс. … канд. филол. наук. – М., 1993. – 254 с.
6. Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке: Дисс. … докт. филол. наук. – М., 1999. – 421 с.
7. Назарова И.В. Роль наречий-градуаторов в английском языке // Вопросы современной науки и практики. – №1(11). – 2008. – С. 205-208.
8. Неъматов Ҳ., Бегматов Э., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (Систем лексикология тезислари) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1989. – №6 – Б. 35-40.
9. Неъматов Ҳ., Бегматов Э., Расулов Р. Систем лексикология асослари. – Т., 1997. – 128 б.
10. Тихомиров С.А. Гипербола в градуальном аспекте: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 2006. – 27 с.
11. Shirinova N. Graduonymic relations in different-systemic languages. – T., 2025. – 90 b.
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nisbiylik_nazariyasi